

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev O'zbekiston davlat filarmoniyasi Bosh direktori Anvar Tojiboyev bilan uchrashuv o'tkazdi.

Samimiy ruhda o'tgan uchrashuvda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda O'zbekiston davlat filarmoniyasi o'rtasida hamkorlik aloqalarini chuqurlashtirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Uchrashuv yakunlariga ko'ra, ikki tashkilot o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

Unda tomonlar o'rtasida o'zaro manfaatli ilmiy-ijodiy va madaniy aloqalarni o'rnatish, malakali mutaxassislarni ilmiy-pedagogik jarayonga jalb etish, orkestr kutubxonasidan institutning talabalar o'quv orkestri repertuarini boyitishda foydalanish, innovatsion ilmiy-tadqiqot hamkorligini yo'lga qo'yish, professor-o'qituvchilar va mutaxassislarni jalb qilgan holda qo'shma ilmiy-ijodiy tadbirlar o'tkazish, mahorat darslariga taklif etish va o'tkazish, nazariya va amaliyot o'rtasidagi integratsiya jarayonini takomillashtirish, cholg'u ijrochiligi uslublari bo'yicha yetakchi sozandalar tajribasini o'rganish, yetakchi professor-o'qituvchilar, qo'shma konsert dasturlarini tayyorlash va o'tkazish, madaniy va ijodiy tadbirlar, shu jumladan, ko'rik-tanlovlar, festivallar, kontsert dasturlarini hamkorlikda tashkil etish va ularda faol ishtirok etish, "Cholg'u ijrochiligi" ta'lim yo'nalishi va

mutaxassisligi bitiruvchilarining Yakuniy Davlat attestatsiyasini ish beruvchi tashkilot sifatida filormoniyada o'tkazilishini ta'minlash, o'quv, ilmiy-metodik, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-metodik hamda ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarda hamkorlik qilish, magistrlik dissertatsiyalari, bitiruv malakaviy (ijodiy) ishlar mavzularini hamkorlikda shakllantirish va tayyorlash kabi masalalar qamrab olindi.

Shundan so'ng O'quv teatrida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda O'zbekiston davlat filarmoniyasi Davlat akademik xalq cholg'ulari orkestri bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Yoshlik taronalari" deb nomlangan konsert dasturi namoyishida birgalikda ishtirok etishdi.

Konsertda "Uvertyura", "Allegro appassionato", "Sozsiz qoshiq", "Valenki", "Rondoletto", "Ey Sabo", "Lezginka", "Oblivion", "Mash botoy", "Tofon", "Diltorim", "Artsax" kabi o'zbek va jahon musiqasi namunalari mahorat bilan ijro etildi hamda tomoshabinlarga manzur bo'ldi.

**Bugun O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat instituti
huzuridagi ilmiy daraja
beruvchi**

**PhD.08/28.08.2020.San.121.01
raqamli Ilmiy Kengashda ikki**

nafar tadqiqotchilarning san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining himoyasi bo'lib o'tdi.

Himoya avvalida institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev har bir sohaning taraqqiyoti uning ilmiy jihatdan qanchalik keng tadqiq etilganiga chambarchas bog'liq ekanligini alohida qayd etdi. Shuningdek, institutda ham bu borada qilinayotgan ishlarga alohida to'xtalib o'tdi.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, 2024-yilga nazar tashlaydigan bo'lsak, professor-o'qituvchilarimiz 4 ta professor, 21 ta dotsent, jami – 25 ta ilmiy unvonga, 2025-yilning yanvar-fevral oylarining o'zida 3 ta professor, 7 ta dotsentlik jami – 11 ta ilmiy unvonga ega bo'ldilar. 2024 yil 1 ta DSc, 12 ta PhD himoyasi o'tkazildi.

Ilmiy Kengashda dastavval Do'sanov Rahimjon Raimqulovichning 17.00.01 – Teatr san'ati ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda "bir aktyor teatri"ning shakllanishi va uning badiiy asoslari" mavzusida san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya himoyasi o'tkazildi.

Ilmiy tadqiqot ishida quyidagi ilmiy yangiliklar asoslab berilgani ta'kidlandi: O'zbekistonda "Bir aktyor teatri"ning paydo bo'lishi va rivojlanishida qadimgi davrning yakka ijrosi, baxshilar bir aktyor teatri (VII-IX asrlar), an'anaviy teatrdagi masxaraboz va qiziqlar bir aktyor teatri (XVIII-XIX asr), badiiy yaxlit shakldagi bir aktyor spektakli (XX asr), bir aktyor teatrining 3D formatdagi gologramma shakli (XXI

asr) kabi bosqichlari aniqlanganligi;

“Bir aktyor teatri” spektaklini ijro etgan aktyorlarning repertuarlari, ular ijrosidagi dostonlar, yakka ijrodagi tomoshalar, XX asrdagi she’riy kompozitsiyalar, bir aktyor ijrosidagi spektakllar dramaturgiyasining badiha, grotesk kabi badiiy-g’oyaviy jihatlari, rejissyorning o’ziga xos ramziy, metafora, gologramma kabi uslublari aniqlanganligi;

2019-yil Markaziy Osiyoda ilk bor zamonaviy 3D formatdagi gologramma teatri O’zbekistonda tashkil etilgani va bu yo’nalish bilan texnologiyalar imkoniyatidan foydalanib, yot g’oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash mumkinligi “Buyuk Temur” nomli spektakl namoyishi misolida isbotlanganligi;

milliy “Bir aktyor teatri” – davr talabidagi g’oyaviy jihatdan puxta repertuarni tezkor yarata oladigan, aktyorning serqirra mahoratini namoyon qiladigan, ko’chib yurishga qulay ijod maskani ekanligi, o’z g’oyaviy repertuari bilan milliy iftixor hamda g’ururni mustahkamlaydigan, vatanparvarlik tuyg’ularini rivojlantiradigan, yoshlarni yot g’oyalardan himoyalaydigan spektakllar namoyish eta olishi dalillanganligi.

Dissertantning ishi falsafa fanlari nomzodi, professor Mamur Umarov ilmiy rahbarligida tayyorlangan.

✓□Dissertasiya ishi muvaffaqiyatli himoya qilindi.

Rektor va yoshlar

Sharqona yangi yil boshlanadigan qutlug’ kun – Navro’zi olam asrlar davomida bahor, ezgulik, mehr-oqibat, mehnat va bunyodkorlik ramzi sifatida el-yurtimizning ijtimoiy-ma’naviy hayotida beqiyos o’rin tutib kelmoqda.

2025-yilgi Navro’z bayrami «Qadriyatlaring boqiy bo’lsin, Navro’z!» shiori ostida nishonlanadi. Ayni paytda yurtimizda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 21-fevralda qabul qilingan "2025-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori asosida ushbu ayyomga tayyorgarlik davom etmoqda.

E'tiborli jihat, mazkur shodiyonalarga tayyorgarlik jarayonlarida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalari ham faol ishtirok etishmoqda.

Bugun erta tongdan institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev bayram tanatanalariga tayyorgarlik jarayonida ishtirok etayotgan institut talabalari bilan uchrashdi.

Unda ushbu jarayon ijodkor talabalarining kelgusi faoliyati uchun ham katta ahamiyatga ega ekanligi yana bir bora ta'kidlandi. Qolaversa, talabalarining tayyorgarlik jarayonidagi faolliklari ham e'tirof etilib, ularga yangi sport kostyumlari va kepkalari taqdim etildi hamda moddiy rag'bat ham berilishi e'lon qilindi.

**Ma'lumki, O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev joriy
yilning 5-mart kuni
Korrupsiyaga qarshi kurashish
milliy kengashi yig'ilishida**

ishtirok etdi.

Yig'ilishda yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha qilingan ishlarga baho berilib, kelgusi vazifalar belgilandi.

Davlatimiz rahbari 55 ta aniq maqsadga yo'naltirilgan tashabbuslarni ilgari surdi. Ular doirasida 5 ta qonun, 12 ta farmon va qarorlar ishlab chiqiladi.

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev rahbarligida ushbu yig'ilishda belgilangan dolzarb vazifalar ijrosini ta'minlash hamda institut miqyosida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlari, Kasaba uyushmasi qo'mitasi va Xotin-qizlar maslahat kengashi raislari hamda yoshlar yetakchisi ishtrok etdi.

Yig'ilish kun tartibidagi masala yuzasidan fikr bildirar ekan Nodirbek Sayfullayev davlatimiz Rahbarining "Hammamiz yagona kuch bo'lib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san'at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar – umuman butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga "jamiyat tanasidagi saraton" sifatida qarashi kerak", – degan so'zlaridan iqtibos keltirib, bu so'zlar faoliyatimizdagi asosiy mezonga aylanishi lozimligini ta'kidladi.

Yuqoridagi yig'ilishda fikri toza, korrupsiyaga toqatsiz yangi avlodni tarbiyalash maqsadida ta'lim maskanlarida halollik g'oyalarini singdirish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash muhimligi ko'rsatib o'tilganini, xususan, institutda ham talaba-yoshlar o'rtasida bu illatning salbiy

oqibatlari haqida batafsil tushuncha berish, ular o'rtasida tanlovlar tashkil etish ishlarini yanada jadallashtirish, ayniqsa, tarbiyaviy ahamiyatga ega roliklar yaratish zarurligini aytib o'tdi.

Shu bilan birga, joriy yilning 11-mart kuni madaniyat vaziri boshchiligida ham korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha dolzarb vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazilgani va vazirlik tizimida ham bu borada amalga oshirishi lozim bo'lgan ishlar belgilanganini keltirib o'tdi.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashni bir zum ham to'xtatmasligimiz darkor ekanligini, biz nafaqat o'zimiz uni sodir etmasligimiz, shu bilan birga, atrofimizdagilarning ham bu illatga aralashmasliklari uchun ham mas'ul bo'lishimiz kerakligini alohida qayd etdi.

Institut jamoasiga murojaat o'laroq, "Korrupsiyaga qarshi kurashish har birimizning faoliyatimizdagi asosiy vazifaga aylanishi shart, san'at va madaniyat sohasi xodimlari bu borada o'rnak bo'lishi lozim, ana shundagina Yurtboshimiz va xalqimizning bildirayotgan yuksak ishonchlarini oqlagan bo'lamiz". – dedi

□□Shuningdek, mutasaddilarga bu borada qilinishi lozim bo'lgan vazifalar yuzasidan ham ko'rsatmalar berib o'tildi.

Yig'ilishda tashkiliy masala ham ko'rilib, unga ko'ra, institutning Ishlar bosohqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlangan Isroiljon Abdukadirov jamoaga tanishtirildi.

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Estrada aktyorligi san'ati" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabalari Sahna nutqi fanidan kurs ishi topshirdi.

Kurs ishida talabalar berilgan mavzularning amaliy va nazariy jihatlarini tahlil qilishdi.

Xususan, talabalar "Xalq og'zaki ijodining talaba aktyor nutq shakllanishidan o'rni", "So'z san'ati – adabiy matnini mantiqiy tahlili", "Adabiy asarda muallifning mavzu va g'oyasini aniqlash", "Ifodali o'qish san'atida tahlil va talqin yo'li", "She'riyat: "Barmoq" vaznidagi she'rning o'ziga xosligi", "Sahna nutqi texnikasi: nafas va ovoz uyg'unligiga erishish yo'llari", "Sahna nutqi texnikasi: nafas va ovoz, talaffuz me'yorlarini takomillashtirishda klassik she'rlarning o'rni", "Orfoepiyaning ijro jarayonlaridagi maromi", "Qayta himoyalash metodining badiiy asar talqinidagi o'rni", "Aktyor nutqining takomillashtirishda xalq dostonlari va sajlarining ta'siri", "Badiiy so'z san'atida tahlil va talqin", "Aktyorni tarbiyalashda muallif va ijrochi nutqining sahnaviy talqini" va boshqa ko'plab sohaga oid mavzular yuzasidan fikr-mulohazalarini bayon qilib o'tishdi.

Talabalarning mavzu yuzasidan bilimlarini komissiya raisi: dotsent Umida Ibragimova, komissiya a'zolari: dotsent Isoqtoy Djumanov, dotsent v.b Dilrabo Jumanova, Sahna nutqi fani o'qituvchilari – professor Maxsuma Xodjimatoeva, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, dotsent Lola Eltoyeva, professor v.b Xatira Djulldikarayeva hamda kurs rahbari: dotsent Farrux

Egamberdiyevlar tomonidan baholandi.

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev rahbarligida navbatdagi yig'ilish bo'lib o'tdi.

□Yig'ilishda barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari ishtirok etdi hamda 2025-yil uchun rejalashtirilgan maqsadli investitsiyalar jalb qilish holati va 2 oy mobaynida kafedralar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tijoratlashtirish bo'yicha (kafedralar kesimida) amalga oshirilgan ishlar, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-son buyrug'i bilan tasdiqlangan konferensiyalarga tayyorgarlik holati, yakuniy attestatsiya dasturini (bitiruvchi kurslar uchun) ishlab chiqish va tasdiqlash, bitiruvchi kurs talabalarining bitiruv oldi amaliyotini olib borilishi, ma'naviyat masalalari hamda institutga biriktirilgan mahallalarda amalga oshirilayotgan tadbirlar kabi masalalar tanqidiy-tahliliy muhokama qilindi

□□Ushbu masalalar yuzasidan mutasaddilarning axborotlari tinglandi hamda barcha mas'ullarga tegishli topshiriqlar berildi.

Nodirbek Sayfullayev Toshken shahar Mirzo Ulug'bek tumani "Ulug'bek" mahalla fuqarolar yig'ini (Ulug'bek shaharchasi)da o'ziga biriktirilgan kam ta'minlangan oilalar sharoitini borib ko'rdi.

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev Toshken shahar Mirzo Ulug'bek tumani "Ulug'bek" mahalla fuqarolar yig'ini (Ulug'bek shaharchasi)da o'ziga biriktirilgan kam ta'minlangan oilalar sharoitini borib ko'rdi.

Shuningdek, ularning muammolari o'rganildi. Unda fuqarolarning farzandini Maktabgacha ta'lim muassasiga joylashtirishda, doimiy ish topishda, davolanish borasida va boshqa muammolari borligi ma'lum bo'ldi. Ularni hal etishda tegishli tartibda ko'mak berilishi aytiladi.

Bunday tashriflar aholining muammolarini joyida o'rganish va ularni tezkorlik bilan hal etishda katta ahamiyat kasb etadi. Mahallalarda yashovchi aholining turmush sharoitini yaxshilash, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda.

Nodirbek Sayfullayev odatdagidek, institutning 1 va 2-Talabalar turar joyida bo'lib, talabalarga yaratilgan sharoitlarni yana bir bor ko'zdan kechirdi.

Bugun 9-mart – yakshanba kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev odatdagidek, institutning 1 va 2-Talabalar turar joyida bo'lib, talabalarga yaratilgan sharoitlarni yana bir bor ko'zdan kechirdi.

Tashrif davomida rektor mas'ullar bilan talabalar dars qilishlari hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun yanada ko'proq imkoniyatlar yaratish borasida fikr almasildi.

Shuningdek, talaba yoshlar bilan ham samimiy suhbatlashib, bu yerda yaratilgan sharoitlar, o'qish jarayonlari bilan qiziqdi.

Shu qatorda, talabalar ham mavjud sharoitlar va imkoniyatlardan mamnun ekanliklarini bildirdilar.

Xususan, "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish" ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi Shaxina Ibrohimova Talabalar turar joyida barcha sharoitlar yaratilganini, ayni paytda Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutida bitiruv oldi malakaviy amaliyotida ekanligini, amaliyot davomida ko'plab bilim va ko'nikmalarga ega

bo'layotganini aytib o'tdi.